



ILK O'RTA ASRLARDA SUG'DDA XO'JALIK MUNOSABATLARI

Axmadv Dovudxon Xabibulloyevich

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

+998915226226

dovudxon.axmadv@mail.ru

Sug'd davlatchiligini ko'rib chiqishda hujjatlardagi xo'jalik hujjatlari orasida hisob,sarf-harajatga doir bo'lgan ma'lumotlar o'sha davrni ko'z oldimizga keltirishimizda asosiy ma'lumotlardan biri hisoblanadi .

Sug'd xo'jalik hujjatlari orasida hisobot (kirim, sarf harajat) qaydlari matnlari, pul sarf-harajatlari matnlari mavjud. Devashtich saroyining oziq-ovqat harajatlari izchil olib borilgani hujjatlarda ko'rinadi. Nov.6 hujjatida Devashtichning to'rt yillik hukmronlik davrining hisoboti saqlanib qolgan. Unda saroy xazinasiga kelib tushgan pullar bayoni aks etgan. Moliyaviy masalalarga doir yana A-5, A-11, V-9 kabi hujjatlarda pul birligi sifatida amal qilgan draxmlar haqida qimmatli ma'lumotlar qayd etilgan. Numizmat olimlarning fikriga ko'ra, Sug'dda muomalada bo'lgan draxm pullari kumushdan bo'lib, kundalik sarf harajatlarda ishlatilmagan. Har kungi sarf harajatlarda bronzadan ishlangan tanga pullar bilan muomala qilingan. Bunga Sug'd hududidan topilgan ko'plab bronza tangalar guvohlik beradi¹.

Qishloqlarda soliq va o'lponlar natura (mahsulot) ko'rinishida olingan. Xo'jalik hujjatlari orasida bug'doy, o'rik, may va boshqa mahsulotlarga oid daromad va kirim-chiqim rasmiy yozishmalari saqlangan. Shuningdek, qo'ylarni, terini, unni va mayni yetkazib berishga oid hujjatlar ham uchraydi². Hujjatlardan bug'doy, qo'y, may Panjikent hokimiga Yuqori Zarafshon qishloqlaridan olib kelinganligi ma'lum bo'ldi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, Mug' hujjatlaridan biri - A-13 mazmuniga ko'ra ko'prikan foydalanganlik uchun to'lanadigan soliqni undirish haqidagi pul to'lovi topshirig'ida, xususan, 1,2-satrlarida xatning kimdan kimga yozilgani aks etgan. Xatni jo'natuvchi tomon Panjikent hokimligining soliq yig'uvchisi (bozkirom) va

¹ Смирнова О.И. Сводный каталог согдийских монет... – 548 с.

² СДГМ III... – С. 118-123.



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th December, 2024

Panjikent xalqi jamoasi (naf) deb ko'rsatilgan³. Xat tegishi lozim bo'lgan kishining nomi emas, faqat lavozimi aytilgan bo'lib, *tarxon* deb o'qiladi. *Tarxon* so'zi amal, lavozim nomi sifatida keng ma'lum. Bundan tashqari, o'rta asrlarda soliq va boshqa majburiyatlardan ozod qilingan ijtimoiy tabaqa ham shu nom bilan atalgani ma'lum. Abu Rayhon Beruniyning «Osor ul-boqiya» (O'tmish xalqlardan qolgan yodgorliklar) asarida Samarqand hukmdorlari «tarxun» unvoniga ega bo'lganligi qayd etiladi⁴. VII-VIII asrlarga oid kumush idishda ham sug'dcha *tarxun* so'zni o'qish mumkin⁵. Tadqiqotchi A.Freyman Panjikent hukmdori Devashtich «tarxon» unvoniga ega bo'lgan, deya ta'kidlaydi⁶.

Umuman olganda, mazkur xat mulk munosabatlari va ulardan foydalanishning huquqiy jihatlarini ko'rsatib, davlat hisobotchilik darajasining yuksakligidan dalolat beradi.

Xo'jalik hujjatlarining tarkibidagi saroy hisoboti matnlari (kirim, chiqim) kattagina hajmdagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan. Bularga B-2, B-8, B-9, B-10, B-5, V-11 R, Nov.1, V-2, B-6, V-11 V, A-1V, B-1, B-12, Nov.6, A-5, A-11, V-9 V, B-27 raqamli hujjatlar misol bo'la oladi. Ularda Panjikent saroyining kundalik, oylik, yillik sarf harajatlari, kirim (tushim) haqidagi ma'lumotlar zikr etilgan. Masalan, ular orasida pul sarf harajatlari yoki pul tushumi bilan bog'liq matnlar alohida e'tiborga ega. Bularga, Nov.6, A-5, A-11, V-9V raqamli hujjatlarni misol qilsa bo'ladi.

Nov.6 hujjatida Panch hokimi Devashtich hukmdorligining 10,12,13chi yillarida xazinaga mansabdor shaxslardan olingan pul tushumi hisoboti berilgan⁷. Birinchi tushum pullari bug'doy o'rniga olinganligi (3-5 qatorlar), bu holatda soliq natura (mahsulot) o'rniga pul bilan to'langanligini ko'rsatadi. Hujjatda qolgan tushum xususiyatlari aks etmagan.

Podsho Devashtich saroyi a'yonlari va bir qancha boshqa shaxslar uchun sarf etilgan turli buyumlar va ularga xarj etilgan pulning reyestr ro'yxati aks etgan A-5 raqamli hujjatda ko'pgina shaxslar-turli kasbdagi kishilar, lavozim egalari,

³ Исҳоқов М.М. Унутилган подшоликдан хатлар... – Б. 27-28.

⁴ Абу Райхон Беруний Танланган асарлар. 1-жилд. – Тошкент: 1968. – Б. 129.

⁵ Лившиц В.А., Луконин В.Г. Среднеперсидские и согдийские надписи на серебрянных сосудах // ВДИ. 1964. – №3. – С.172.

⁶ СДГМ I... – С. 67.

⁷ СДГМ II... – С. 185.



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th December, 2024

jumladan, bog‘bon, kohin kabilar haqida gap boradi⁸. Shuningdek, Devashtichning shaxsan buyrug‘i bilan xazinadan turli shaxslarga pul berilgani ham (buxorolik, frametonlik ayol uchun) qayd etilgan. Shunisi qiziqki, sarfiyot haqidagi bu yozuvlar saroy va davlat xizmatida ko‘pgina to‘lanadigan pul bevosita hokim nazoratida bo‘lganini ko‘rsatadi. Ikkinchi tomondan esa, shunchalik qat‘iy hisobot hujjati bilan ish ko‘rilganiga qaramay to‘lovlar bir me‘yorga solingani haqida xulosa qilish qiyin.

Masalan, Devashtich topshiriq bilan biror kishini jo‘nata turib, unga 10 draxma berishni xazinachiga buyurishi mumkin yoki yozgi qarorgohiga ketgach, Devashtich o‘sha yerdan turib chopar orqali buyruq yuborishi va shu asosda G‘uncha, Futchakka 3 draxmdan pul berilishi mumkin. Shu jumladan, bosh kohin 50, Vishak (qishloqining) hokimi 10, Mit-4, Chitchit-4, Xumdot-4, G‘upat-50, Avdmaxch (bog‘bonboshi) - 10 draxm va hokazo pul olganligi ro‘yxatga tushgan. A-5 hujjatdagi qator shaxslarning nomi boshqa hujjatlarda ham uchraydi. Bu hol ularning saroydagi aktiv faoliyati bilan bog‘liq.

Sarf harajatlar turkumiga kiruvchi B-1, B-12 hujjatlari ham diqqatga sazovardir. Ularda harbiy harajatlar, kiyim-bosh, harbiy aslahalar turli shaxslarga berilganligi qayd etilgan. Arablar bosqini munosabati bilan VIII asrning birinchi choragida ko‘pgina korxonalar harbiy ehtiyojlar uchun xizmat qilgani manbalarda uchraydi. Matnda berilgan harbiy anjomlar uchun to‘lanishi lozim bo‘lgan pul miqdori ko‘rsatilmagan. Mamlakatda favqulodda vaziyat bu anjomlar tarqatilganiga sabab bo‘lishi mumkin.

Arxivda yuqorida nomi zikr etilgan don bilan bog‘liq hujjatlar bo‘lib, ularda Xufarn va Xutachanlarga yoki bo‘lmasa Zrunb qishlog‘i aholisiga 200 kafchdan don berish haqida gap boradi (1 kafch 8-10 kg). Bu hujjatlardagi don miqdori har gal qariyb 2-3 tonnaga yaqin. Omborlardan bu donning nima asosda iste‘molga tarqatilishi haqida biror narsa deyish qiyin. Har holda bu oldi-sotdi munosabati emas. Don evaziga biror narsa undirilishi ham hujjatlarda qayd etilgan emas. Bu borada M.Is‘hoqovning ta‘kidlashicha, don tarqatilishi an‘anaviy qishloq jamoachiligi darajasidagi ijtimoiy munosabatlarning bir ko‘rinishi deb qaralishi mumkin⁹.

⁸ Исҳоқов М.М. Унутилган подшоликдан хатлар... – Б. 51.

⁹ Исҳоқов М.М. Сугдиёна тарих чорраҳасида... – Б. 23.